

## **HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI LUG'AT TARKIBINING ETNOLIGVISTIK TADQIQI**

**A.To'rabe kova –**

GulDU o'qituvchi,

**D.E.To'rabe kov –**

GulDU magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'zbek xalqi va o'zbek tilining kelib chiqishiga doir ma'lumotlar berilgan. Har bir xalqning borligiga asosiy sabab uning ona tili borligidadir degan g'oya ilgari surilgan. Til va uning xalq hayotidagi ahamiyati va tarixi keng yoritib berilgan.

### **Аннотация**

В данной статье представлена информация об узбекском народе и происхождении узбекского языка. Высказывались предположения, что основной причиной существования любого народа является его родной язык. Широко освещается язык, его значение и история в жизни народа.

### **Annotation**

This article provides information about the Uzbek people and the origin of the Uzbek language. It has been suggested that the main reason for the existence of any nation is its mother tongue. The language and its importance and history in the life of the people are widely covered.

**Kalit so'zlar:** til, tilshunoslik, millat, etimologiya.

**Ключевые слова:** язык, языкоzнание, этнос, этимология.

**Keywords:** language, linguistics, ethnicity, etymology.

Har qanday xalq o'zining kelib chiqish, rivojlanish tarixini bilishga qiziqadi va shunday bo'lishi ham kerak. Aks holda, u dunyodan o'zini tanimay, kimligini bilmay o'tib ketadi, dunyo ham uning aslidan bexabar qoladi. Navoiy bobomiz bejiz: "El netib topgay menikim, men o'zimni topmasam", demagan. Shu bois asl millat farzandlari o'zları mansub xalqning kelib chiqishi, shakllanishi, ota-bobolari, ajdodi kimligini o'rganib, bilib olishni o'zlarining muqaddas burchi, albatta, amalga oshiriladigan muhim vazifa deb bilganlar va har qancha qiyin, og'ir bo'lsa-da, uni bajarishga bor kuch-g'ayrati, iqtidor-iste'dodini sarflaganlar. Mustabid sovet tuzumi bunga har xil yo'llar bilan to'siq qo'yib, milliy o'zlikni anglashga muntazam qarshilik qilib kelgani, asl haqiqatni ochishga hech qachon yo'l qo'ymagani, ataylab pardalab tashlagani, yashirgani bugungi yoshlarga ham yaxshi ma'lum. Shu sababli yetmish yillik sovet tarixida ona xalqimiz o'zining asl etnik asosi, kelib chiqishi haqidauzuq-yuluq va buzilgan, haqiqatdan uzoq, soxta ma'lumotga ega bo'ldilar,xolos.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan millatlarni musta-bidlik iskanjasida saqlashga qaratilgan mazkur manfur sovet siyosatiga davlat miqyosida chek qo'yildi. Birinchi galda, millat tarixini, o'zbekka tegishli milliy o'zanlarni tiklash va buni ijtimoiy hayotning barcha jabhasiga tatbiq qilib, barcha sohada milliy tiklanishga e'tibor qaratish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nali shiga aylandi. O'zbek tiliga davlat maqomining berilgani bu boradagi ishlarning debochasi, ushbu umummilliylar harakatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omili bo'ldi, bugun ham shunday,bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Zotan, ona tilimiz - o'zbek tili bizning eng oliy – vatandek yagona, Vatandek bitta bo'lgan, mohiyatiga ko'ra esa

hatto undan ham yuqori turadigan – muqaddas qadriyatimizdir. Albatta, xalqning vatani bo’lsa, nur ustiga a’lo nur, qo’shaloq baxt, omad, ammo, baxtga qarshi, dunyoda vatani yo’q yoki uni boy bergen ona tilli xalqlar ham bor. Biroq ona tilni unutgan, ona tilsiz xalq ham, vatan ham yo’q, bo’lishi ham mumkin emas. Xalqning borligi, mavjudligi, yashash sharti - ona tilning borligi bilandir. Biz O’zbekistonda yashayotganimiz uchun emas, ona tilimiz o’zbek tili bo’lganligi, nutqimiz o’zbekcha ekanligi bois o’zbekmiz. O’zbekistonning O’zbekistonligi, o’zbeklar vatani ekanligi ham shubhasiz shu bilan – o’zbek tili bilan belgilangan. Xudo ko’rsatmasinu, ona tilimizni unutsak yoki boshqa tilga almashtirsak, o’zlik degan mislsiz buyukligimizdan - bizniki, o’zbekniki bo’lgan jamiki milliy qadriyatlarimizdan, buyuk tariximizdan ajralamiz: o’zbeklik ham, O’zbekiston ham, o’zbekcha hayot, ming yilliklarni bo’ylovchi bobomeros urfu udumlarimiz, marosimlarimiz, o’zbek ilm-fani, moddiy va ma’naviy madaniyat, adabiyotu san’atimiz hech narsa bilan o’lchab bo’lmas tengsiz milliy - o’zbekiy qiymatini yo’qotadi, hech qachon o’zbekcha gapira olmaydigan jonsiz – ovozsiz yo’qlikka dunyosiga yuz tutadi. Ha, chindan ham, shunday. Tilni yo’qotish xalq uchun eng mash’um fojea, mislsiz inqiroz, abadiy o’lim, so’ngi yo’q zulm. Bundan ortiq sho’rish, badbaxtlik bormi dunyoda?! Tilini yo’qotmagan xalqlar vatanlimi yoki vatansiz, yashayapti, bor, hayot, ammo tilini asrab qololmagan xalqlar abadiy o’lim sahosida najotsiz tosh qotganlar. Ular endi batamom o’lganlar, tirilmaydilar, borsa-kelmasga ketganlar, mangu yo’qlik qismatiga duchor bo’lganlar. Butun boshli xalq uchun qanchalar dahshat bu!

Ayting-chi, dunyoning boshqa yurtlaridagi barcha tildoshlarimiz o’zlarini nimaga asoslanib o’zbek deydilar? Bir paytlar O’zbekistonda yashaganliklari yoki qarindosh-urug’lari O’zbekistonda ekanliklari sabablimi? Yo’q, albatta. Ular ona tillari o’zbek tili bo’lganligi uchun, jondan aziz shu tilni saqlab qolganlari, o’zbek tili sohiblaridan biri ekanliklari tufayli o’zbek hisoblanadilar. Boshqacha aytganda, ular O’zbekiston bor bo’lgani yoki biz bor bo’lganimiz uchun emas, o’zbek tili deb atalgan ota turkiy tillardan birining egasi bo’lganlari, har qancha qiyinchilik bo’lsa ham, shu aziz, mo’tabar, mushfiq, muqaddas, tengsiz ne’mat, o’zligimiz, o’zbekligimiz timsoli bo’lgan ona tilimizni, o’zbek tilini saqlab qolganlari, avaylab-asrab kelayotgani tufayli o’zbek-dirlar. Ming yillardan buyon yon qo’shnilarimiz Tojikiston, Qozo-g’iston, Qirg’iziston, Turkmaniston, Afg’onistonda yashab kelayotgan tildoshlarimizning bizga millatdoshligining asl sababi ham shu - o’zbek tilidir. Turkiya yoki Yevropa, Amerika, Afrika, Avstraliyadagi o’zbeklar ham xuddi shu sabab – o’zbek tili bois o’zlarini o’zbek sanaydilar, o’zbek hisoblanadilar. Xullas, Yer yuzidagi barcha o’zbeklarning o’zbekligining asosi bitta: onamiz, onajonimizdek yagona o’zbek tili – ona tilimizdir. Barchamizning o’zbekligimiz - mehribon Ollohimizning izni bilan bitilgan ilohiy taqdir - shu buyuk ne’mat ona tilimiz, o’zbek tili bilan muhrlangan. Har birimizning o’zbekligimizga birdan-bir dalil, yagona isbot u. Bu borada boshqa hech narsa unga teng kela olmaydi, ta’kidlaganidek, hatto vatan ham. Zero, u ham boshqa emas, ayni ona tilimiz tufayli O’zbekistondir. O’zbek tili bo’lmasa, O’zbekiston ham yo’q.

Xalqimiz uchun o’zbek tilining bu qadar ulug’ligi, tengsizligi, eng oliy qadriyatligi, undan ayrilish biz uchun o’zlikning, o’zbeklik, O’zbekistonning yo’qolishi bilan bab-barobar fojea ekanligini yurakdan his qilgan buyuk shoirimiz Abdulla Oripov bu haqda shunday deydi va bu nafaqat biz, balki ona tilli barcha xalqlar uchun ham hayot-mamot ogohlantirishidir:

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,

Bulbul kuyin she’rga solaman.

Sen yo’qolgan kuning shubhasiz,

Men ham to’ti bo’lib qolaman.

Ona tili dunyodagi har bir xalq uchun shunday mavqe, maqomda turadi va shu ma’noda ona tili, u qanday nomlansa, shu nomdagagi xalq timsoli hisoblanadi. Har bir xalq bejiz ona tili nomi bilan atalmaydi. Chunki xalq va til birdir, bir butundir. Tilda xalq yashaydi, xalq tilida

yashaydi, o'z tili, nutqi bilan mavjudlik, borliqlik kasb etadi, borlanadi. O'z navbatida, til ham shu xalq bilan, shu xalq tufayli tirik, barhayot bo'lib, o'zi atab kelayotgan va uni asrlar osha asrab-avaylab kelayotgan, uni ona tilim – jonu dilim deb alqaydigan, sevadigan xalqning eng muhim, asosiy aloqa vositasi, intellektual-ma'naviy boyligi, o'y-xayol, orzu-istagi, his-tuyg'u, ichki kechinmalarining yorqin ifoda-lovchisi sifatida unga hech bir iddaosiz, minnatsiz, oldidagi oqar suvdek, har nafas olishida hoziru nozir havodek xizmat qiladi, o'z egasining tarixi-yu tahdiri, o'tmishiyu buguni, surati-yu siyрати, jamoliyu kamoli, boru yo'g'i bo'lib, uning muntazam fikriy-nutqiy sa'y-harakati bilan yorug' dunyoga yuz tutadi, o'zligini, o'z sohibini u yoki bu ona til nomida namoyon qiladi, egali nutq qiyofasida ko'rinish beradi, shu asnoda beqiyos ijtimoiy faoliyat ko'rsatib, kommunikativ, kognitiv, estetik, akkumlyativ, aksioligik kabi millat va insoniyat uchun juda muhim bo'lган xilma-xil vazifalarni bajaradi, yildan-yilga boyib, rivojlanib, takomillashib boradi.

Qissadan hissa-xulosa shuki, xalqning xalqligi, dunyoda borligi boshqa hech bir narsa bilan emas, aynan ona tili bilandir. Shu sabab ona tili xalq, millatning o'zligi, milliy o'zlik timsolidir. Bunda zarracha bo'lsin mubolag'a yo'q, bu ob'ektiv hayot haqiqati. Navoiy hazratlari bejiz "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" demaganlar.

Biroq, afsuski, buni hali ko'p xalqlar, shu jumladan, biz, o'zbeklar ham, chuqur anglab, yurakdan his etib ulgurganimiz yo'q. To'tiqul holidagi "o'zbeklar" hali ham bor, ayanchlisi, ularning safiga yangilari qo'shilayotgani va bundan na ularning o'zlari, na atrofdagi o'zbeklarning uyalmayotgani, tashvishlanib, xavotirga tushmayotgani, ogohlanmayotgani. Bundan ham yomoni esa, bu xil harakatlarning hatto davlat mutasaddilari tomonidan rag'batlantirilayotgani, qo'llab-quvvatlanayotgani, shuning natijasi o'laroq bu nomaqbul faoliyat ta'sir doirasi, qamrov miqyosining kengayib borayotgani. Yashirib nima qildik, bugun yana o'z tilini bilmaydigan, unda gapira olmaydigan, biroq ingliz yoki rus tilida bulbuldek (aslida, to'ti) sayraydiganlarning oshig'i olchiga aylanib boryapti. Bunday holatlarni hatto katta anjumanlarda ham bemalol kuzatish mumkin bo'lib qoldi. Ular hech bir istiholasiz o'z tilida emas, o'zga tilda intervyyu beradilar, o'zbek jurnalistlari ham ularga ularning tilida – to'ti tilida murojaat qilishga majbur. Har ikki suhbatdoshning ham milliy tili - o'zbek tili esa, hech bir moneliksiz chetga surib qo'yilyapti. Onamizdek muqaddas va yagona, tengi yo'q ona tilimizga bunday ixtiyorsizlik aslida o'z eliga e'tiborsizlikdan, o'z xalqiga o'ta humratsizlikdan, loqayd munosabatdan boshqa narsa emas. Bunday to'ttaxlit "bulbullik"ning milliy ma'naviyatimiz, madaniyatimizga zarracha ijobjiy ta'siri bormi!? Imonimiz komilki, yo'q. O'z ona tilini tushunmagan, bilmaganlardan, demakki, o'zligini anglamagan, ma'nisiga yetmaganlardan qanday qilib ma'naviy oziq olish mumkin?! Kimga, qaysi millatdoshimizga kerak bunday intervyu, suhbatlar?! To'ti bo'lib qolganligi, to'tilikni joyiga qo'yayotganlari uchunmi? Bu bilan, aslida, madaniy- ma'naviy kemtikligimizni, milliy g'urur ostonasidan o'ta olmaganimizni ko'rsatmayapmizmi?! Chin ma'nodagi madaniyat bunday bo'imasligini bugun butun dunyo biladi.

Hech shubha yo'q, o'zini atab kelayotgan tilini saqlab qolgan, ona tilida gapirib, o'zaro fikr almashadigan xalqning vatani bo'lsa, qani, buning savobiga kim yetsin?! Bu tengsiz baxt, tengsiz saodat–ku!! Shunday xalqlar qatorida ekanligimiz qanchalar omad, qanday baxt-iqbol! Mustaqil davlat ekanimiz, erkimiz, ozodligimiz o'z qo'limizda ekanligi esa yana-da baxtiyorlik, bundan-da saodatmandlik, istiqbolilikdir. Oldimizda tarixda misli ko'rilmagan, havas qilsa arzigulik imkoniyatlar eshiklari ochildi. Erkin rivojlanish, mustaqil taraqqiyotga qadam qo'yidik. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan raqobatli hayot kechirishga, eng muhim, asosiy esa, huquqiy-demokratik davlat qurish imkoniyatiga ega bo'ldik va allaqachon bu imkoniyatdan foydalanish ishlarini ham boshlab yubordik. Biroq, endi bu jarayon faqat davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat emas, balki butun xalq harakati, umumxalq harakatiga aylanmog'i va bunda yoshlar ham faol qatnashmog'i lozim.

Shubhasiz, bu har bir o'zbekistonlikdan Prezidentimiz boshchiligidaga ulkan olimlar, iqtisodchilar, siyosat bilimdonlari tomonidan ishlab chiqilgan yuksalish strategiyasiga mos harakat-faoliyatda bo'lismi talab qiladi. Binobarin, har birimiz ushbu ulug' harakatga o'z mavqe, maqomi, kasb-hunar, mashg'uloti, qobiliyati doirasida ozmi-ko'pmi hissa qo'shishga mas'ul hisoblanamiz. Zotan, Yangi O'zbekiston, Prezidentimiz ilk prezidentlik qadamlarida ta'kidlagan-laridek, mard va oljanob xalqimiz bilan birga quriladigan, inson qadrini hamma narsadan ulug' qo'yuvchi ma'naviy-ma'rifiy qonun ustuvoru hukmron bo'lgan adolatli jamiyatdir. Shundagina chin ma'nodagi erkin va farovon hayotga erishamiz. Shunday jamiyatda yashashni istar ekanmiz, ushbu umumxalq harakatida faol bo'lismi har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir, albatta.

Ushbu umummilliy tiklanishdan umummilliy yuksalish sari yo'nalgan oljanob harakatni mustaqil davlatimiz tili maqomidagi o'zbek tilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta. Hech bir ikkilanishsiz aytish mumkinki, bu boradagi ishlarimizning maqsadga muvofiq amalga oshirilishida boshqa biron vosita ona tilimizga teng kela olmaydi. Milliy yuksalish milliy til vositasida amalga oshiriladi va shundagina maqsadga muvofiq yo'nalish oladi. Boshqacha aytganda, bizning milliy yuksalishimiz ona tilimiz -o'zbek tili orqaligina ro'yobga chiqadi va shundagina u haqiqiy milliy yuksalish bo'ladi. Zotan, o'zbek tili – ona tilimizgina bizning milliy tariximiz, milliy ruhimiz, g'ururimiz, tiynatimiz in'ikosi, o'zligimiz-o'zbekligimiz timsoli, o'z borligi-borlig'ida o'zbeklikni asrlar osha avaylab asrab-saqlab kelayotgan va uni imkonli boricha mustahkamlab, rivojlantirib kelayotgan buyuk kuchdir. Shu kuch, g'oya, mazmun-mohiyat, shu maqom-mavqedagi milliy yoki shaxsiy harakat-faoliyatgina milliy taraqqiyot - yangi O'zbekiston jamiyatini qurishning eng muhim vositasi bo'lib, o'zining butun mazmun-mohiyati bilan milliy yuksalishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategisi to'g'risida"gi "28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012,5- son, 3-16-betlar.
4. Mo'minov C. M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent: O'zR FA TAI, 2000. – 47 b.